

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UMEDOV ABDULLAJON MUHAMMADJON O'G'LI

BUXORO SHAHAR URBANOFLOKASI

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Umedov Abdullajon Muhammadjon o‘g‘li

Buxoro shahar urbanoflorasi 5

Умедов Абдуллажон Мухаммаджон угли

Урбанофлора города Бухары 21

Umedov Abdullajon Muhammadjon ogli

Urban flora of Bukhara city 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UMEDOV ABDULLAJON MUHAMMADJON O'G'LI

BUXORO SHAHAR URBANOFLORASI

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.2.PhD/B1165 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Esanov Husniddin Qurbonovich
biologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Turginov Orzimat Turdimatovich
biologiya fanlari doktori (DSc)

Abduraimov Azizbek Sultankulovich
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.06.2020.B.70.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "23" "12" soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Bosh bino, 205-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (300 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" "12" kuni tarqatildi
(2025-yil "4" "12" dagi 18 -raqamli reyestr bayonnomasi).



L.H. Yoziyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash raisi, biologiya fanlari
doktori, professor

Sh.A. Samatova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, biologiya
fanlari nomzodi, professor

H.Q. Esanov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, biologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda hozirgi kunda biologik xilma-xillik va tabiiy ekotizimlarning barqarorligi uchun eng katta tahdidlardan biri o'zga tabiiy-iqlim sharoitlariga xos bo'lgan turlarning kirib kelishi hisoblanadi. Bunda antropogen bosimning kuchayishi va urbanizatsiya darajasining ortib borishi muhim o'rin egallamoqda. XIX asrda dunyo aholisining 3% bo'lsa, XX asr o'rtalarida esa 34% shaharlarda yashagan, 2020-yilga kelib aholining taxminan 57% shaharlarda yashaydi. Natijada antropogen omillar ta'sirlarida urbanofloralarda tasodifiy turlarning floristik tarkibi boyib boradi. Ayniqsa, urbanofloralar tarkibini inventarizatsiya qilish, mahalliy va o'zga hududlardan kirib kelayotgan turlarni aniqlash hamda zamonaviy florogenez xususiyatlarini o'rganish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Jahonda shaharlarning kengayishi, unda aholi sonining ortishi, sinantrop muhitlarda bioxilmaxillikning pasayishi, o'simliklarning transformatsiyasi, boshqa hududlardan kirib kelayotgan o'simlik turlarining ortib borishi, ularning iqtisodiy zarari, aborigen floralar tarkibiga ta'siri, urbanofloraning zamonaviy shakllanish qonuniyatlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda, jumladan, urbanofloralarning to'r tizimli taksonomik tahlilini amalga oshirish, fitogeografiyasi, invaziv turlarning bioekologik xususiyatlarini o'rganish, ularning ta'siri natijasida o'simlik qoplamidagi o'zgarishlar va kelib chiqadigan jarayonlarni aniqlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda tabiiy floralarni o'rganish, muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada tabiiy floralarni zamonaviy usullarda tadqiq qilish, ma'muriy hududlar kesimida o'simliklarni kadastrlash, turlar tarqalishini modellashtirish va to'r tizimli xaritalarini yaratish, resurslarini aniqlash bo'yicha muayyan yutuqlarga erishildi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash...” bo'yicha muhim vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, Buxoro shahri urbanoflorasi inventarizatsiya qilish, o'zga hududlardan kirib kelayotgan turlarni transformatsiya yo'llarini aniqlash, aborigen, adventiv fraksiyalarni qiyosiy tahlil qilish, iqlimlashish va zamonaviy florogenez xususiyatlarini o'rganish hamda turlarni bioiqlimiy modellashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarini obodonlashtirishni yaxshilash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ–1045-son, 2017-yil 11-sentabrdagi “Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish va arxitektura-landshaft jihatdan tuzish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ–3262-son, 2019-yil 11-iyundagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni

“2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 484-son, 2022-yil 10-iyundagi “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–277-son qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Urbanofloralar tarkibining aborigen va adventiv turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar xorijlik olimlar P. Pysek (1989, 1998), shahar florasining sinantropizatsiya xususiyatlari E.D. Dana va boshqalar (2002), urbanoflorani to‘r tizimli xaritalash V.T. Vengriya (2020), yirik shaharlarning o‘simliklar xilma-xilligiga ta’siri N. Jogan va boshqalar (2022) tomonidan olib borilgan. MDH mamlakatlarida shaharlar tabiiy florasining kompleks tahlili A.N. Shvesov (2008), urbanofloraning turli iqlim sharoitlarida va antropogen muhitlarda shakllanishi V.K. Toxtar va O.V. Fomina (2011), shaharning tabiiy va yarim tabiiy muhitlarida invaziv turlarning xususiyatlari A.V. Kravchenko va boshqalar (2020), adventiv o‘simliklarning inventarizatsiyasi A.N. Sennikov va G.A. Lazkov (2024) bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan.

Mamlakatimizda shahar hududi florasini tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar A.A. Abdullayev (1981), T. Mahkamov (2009), K.P. Kaypov (2020), N.M. Sidiqjanov (2024) va boshqalarning ishlarida keltirilgan. Buxoro shahri urbanoflorasi invaziv turlarining xususiyatlari bo‘yicha H.Q. Esanov (2016, 2017, 2018, 2020, 2022), S.M. Gafarova, M.I. Gulamov (2021), A.H. Eshonkulov, H.K. Esanov (2022) tadqiqotlarida ayrim ma’lumotlar keltirilgan. Qayd etilgan tadqiqot ishlari Buxoro shahri urbanoflorasi zamonaviy holati to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lish imkonini bermaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Buxoro shahri urbanoflorasi taksonomik tarkibi, zamonaviy florogenezi, o‘zga iqlim sharoitidan kirib kelayotgan turlarning transformatsiyasi, floraning adventizatsiya xususiyatlari bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar olib borilmagan. Shunga ko‘ra, Buxoro shahri urbanoflorasini tarkibini tahlil qilish, aborigen va adventiv turlarni aniqlashtirish, florodinamik xususiyatlarini o‘rganish, bioiqlimiy modellashtirish va to‘r tizimli xaritalash ishlarini amalga oshirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlarining rejasining MRB-2021-529 “Turli tabiiy-iqlim va antropogen sharoitlarda urbanofloraning shakllanishi xususiyatlari (Belorus va

O‘zbekiston misolida)” (2021–2023) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro shahri urbanoflorasining tur tarkibini inventarizatsiyalash, tahlil qilish va turlarning tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Buxoro shahri urbanoflorasi taksonomik tarkibini aniqlash, konspektini tuzish va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

urbanoflorani to‘r tizimli xaritalash asosida tahlil qilish;

urbanofloraning avtohton va adventiv fraksiyalarini qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

urbanoflorada uchraydigan ayrim invaziv turlarni bioiqlimiy modellashtirish.

Buxoro shahrida urbanizatsiya jarayonining o‘simlik qoplamiga ta’sirini aniqlash va interaktiv veb-sayt yaratish.

Tadqiqot obyekti Buxoro shahri urbanoflorasi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti Buxoro shahri urbanoflorasining taksonomik, geografik, qiyosiy tahlillari, avtohton va adventiv fraksiyalari, adventiv turlarning transformatsiyasi va bioiqlimiy modellashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda marshrutli, taksonomik, biogeografik, to‘r tizimli va GAT (geoaxborot tizimi) xaritalash, bioiqlimiy modellashtirish hamda Normallashtirilgan Vegetatsiya Indeksi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Buxoro shahri urbanoflorasi 42 oila, 170 turkumga mansub 255 tur o‘simliklardan iboratligi aniqlangan, uning Turon florasiga xosligi ochib berilgan;

85ta indeks bo‘yicha turlar xilma-xilligi (SR) va yig‘malar zichligi (CD)ning hududiy dinamikasini tahlil qilish asosida urbanizatsiya darajasi bilan floristik xilma-xillik o‘rtasidagi bog‘liqlik baholangan;

Buxoro shahri urbanoflorasi tarkibida 36 oila, 117 turkumga mansub 159 ta avtohton, 26 oila, 70 turkumga mansub 96 ta adventiv tur aniqlangan, urbanoflorada adventivlanish jarayoni yuqori ekanligini asoslangan;

turlar xilma-xilligi va o‘sishi uchun optimal sharoitlar +4-6°C harorat, 120–150 mm yog‘in va 201–600 metr balandlikda namoyon bo‘lishi, kelajakda *Amaranthus viridis*, *Erigeron bonariensis* arealining kengayishi va *Symphyotrichum graminifolium* arealining qisqarishi bashorat qilingan;

Buxoro shahrining 2015–2024-yillardagi o‘simlik qoplamini dinamikasi aniqlanib, yashil maydonlarning qisqarishi va shahar hududining “kulrang kengayish-kulrang kuchayish” modeliga mos ravishda rivojlanayotganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mozaik tasvirlar asosidagi NDVI qiymatlardan foydalanib Buxoro shahrining o‘simlik qoplamini dinamikasi baholangan, ArcGIS 10.8.2 platformasi yaratilib,

raqamli ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan va shahar hududining "kulrang kengayish-kulrang kuchayish" urbanizatsiya modeli ishlab chiqilgan;

Buxoro shahri urbanoflorasining hujjatlashtirilgan raqamli ma'lumotlar bazasi, interaktiv xarita va foydalanuvchi ishtirokiga ega bo'lgan ilmiy-amaliy veb-platforma ishlab chiqilgan, shahar o'simliklarining makoniy monitoringi va ekologik holatini baholashning zamonaviy tizimi shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishni bajarishda zamonaviy ArcGIS Map, SASPlanet va kartografik dasturlaridan, MaxEnt bioiqlimiy modellashtirishda, QGis dasturi asosida esa o'simliklar qoplamini aniqlashda foydalanilganligi, tadqiqotlar davomida yig'ilgan gerbariy namunalarining Milliy gerbariyda (TASH) saqlanayotganligi, natijalarining yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, natijalardan amaliy loyihalarda foydalanilganligi, olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga muvofiq kelishi, mualliflik guvohnomasi (№DGU 42534) olinishligi va tadqiqotning amaliy natijalari vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Buxoro shahri urbanoflorasi tarkibining to'liq tahlil qilinishi, urbanofloraning o'ziga xos xususiyatlari yoritilganligi, urbanofloraning mahalliy va adventiv fraksiyaga ajratilganligi, har bir turning to'r tizim asosidagi tahlili, urbanofloraga antropogen omillar ta'sirining ochib berilganligi, adventiv fraksiyaning dominant va subdominant turlarining xususiyatlari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yig'ilgan gerbariy namunalari va ularning tarqalish xaritalari "O'zbekiston florasini" yangi nashrini tayyorlashda hamda Milliy gerbariy (TASH) fondini boyitishda, O'zbekiston florasining to'r tizimli xaritasini yaratishda, shahar floralarini o'rganishda dastlabki ma'lumotlar manbasi sifatida ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buxoro shahri urbanoflorasini tadqiq qilishdan olingan ilmiy natijalar asosida:

Buxoro shahri urbanoflorasidan yig'ilgan 42 oila, 170 turkum va 255 turga mansub 1000 dan ortiq gerbariy namunalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) noyob ilmiy obyektiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 13-martdagi 4/1255-637-son ma'lumotnomasi). Natijada gerbariy namunalari O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondini boyitgan hamda www.floruz.uz ma'lumotlar elektron bazasini boyitish imkonini bergan;

Buxoro shahri urbanoflorasidagi turlar tarkibini o'rganish bo'yicha olingan natijalar xalqaro "Bioxilma-xillik bo'yicha ma'lumotlar global tizimi"ga (GBIF, www.gbif.org) kiritilgan (Global bioxilma-xillik ma'lumotlar bazasining 2025-yil 7-yanvardagi №024 guvohnomasi). Natijada, urbanofloralarda uchraydigan o'simliklar turlarining xalqaro ma'lumotlar elektron bazasini shakllantirish va monitoringini amalga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududining tabiiy-iqlim sharoiti, adabiyotlar sharhi va tadqiqot metodlari”** nomli birinchi bobida Buxoro shahrida olib borilgan botanik tadqiqotlar tahlili hamda tadqiqot obyekti va metodlari to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Bobning birinchi bo'limi hududning tabiiy geografik xususiyatlariga bag'ishlangan. Buxoro shahri o'zining pasttekislik relyefi, qurg'oqchil iqlimi va cheklangan suv resurslari bilan ajralib turadi. Yillik o'rtacha harorat 14–16 °C bo'lib, yog'ingarchilik miqdori atigi 100-200 mm ni tashkil qiladi. Tadqiqot hududi O'rta Osiyoning arid mintaqalaridan biri hisoblanadi.


Bobning ikkinchi bo'limida tadqiqot hududida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bayon qilingan. Shahar urbanoflorasi to'r tizimli xaritalash asosida o'rganilib, har bir 1x1 km katak uchun floristik ma'lumotlar yig'ilgan. Dala tadqiqotlari va gerbariy namunalari asosida ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan. Ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayonida MS Excel asosida tuzilgan bazaga tur nomi, topilgan joyi, GPS koordinatalar, kollektorlar va gerbariy raqami kabi parametrlar kiritilgan. Bu yondashuv florani tahlil qilishda tizimlilikni ta'minlaydi.

Gerbariy fondlarida saqlanadigan namunalarni o'rganish natijasida MW, LE va TASH kabi gerbariy fondlarida Buxoro shahridan yig'ilgan tarixiy va zamonaviy namunalar mavjudligi aniqlangan. Ushbu namunalar floristik ro'yxat tuzishda asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy manbalar tahlili amalga oshirilishda, urbanoflora bo'yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlar tahlil qilingan bo'lib, Buxoro shahri urbanoflorasini zamonaviy metodlar asosida shakllanish qonuniyatlari to'g'risida ma'lumotlar yetarli emasligi ma'lum bo'lgan.

Dissertatsiyaning “**Buxoro shahri urbanoflorasining taksonomik tarkibi**” deb nomlangan ikkinchi bobida urbanofloraning taksonomik va to‘r tizimli xaritalash asosidagi tadqiqot natijalari keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limi urbanofloraning taksonomik tahliliga bag‘ishlangan. Unda Buxoro shahrining urbanoflorasi 42 oila, 170 turkum va 255 turlardan iborat ekanligi keltirilgan. Taksonomik tarkib APG IV (2016) tizimi asosida tasniflangan. Shahar kichik hududdan tashkil topganiga qaramasdan, urbanoflora Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining (795 tur, Esanov, 2023) 32,08% ini tashkil etadi. Bu holat antropogen omillarning yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Taksonomik tahlilning eng muhim jihatlarini ko‘rsatadigan omillardan biri yetakchi oilalar va turkumlar tahlilidir. Buxoro shahrining urbanoflorasidagi polimorf oilalar qatoridan 5 tadan ortiq turga ega bo‘lgan oilalar tanlab olingan. Bu oilalarda 200 tur jamlangan bo‘lib, umumiy floradagi turlar bilan taqqoslaganda 78.43%ni tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Buxoro shahar o‘simliklarining polimorf oilalar

Keltirilgan urbanofloraning yetakchi oilalar tarkibi Buxoro vohasi, ya’ni sinantrop muhitlar florasining yetakchi oilalar spektriga (Esanov, 2023) mos kelishi aniqlangan. Ammo oilalar ketma-ketligida ayrim farqlanishlar mavjud. Spektrdagi birinchi uchlikdagi bu ketma-ketlikni yirik (qadimiy) shaharlarning florasida uchun xos xususiyat sifatida ham qabul qilish mumkin. Toshkent shahrida Poaceae (101 tur) va Asteraceae (82) (Temirova, 2023), Andijonda Asteraceae (54), Poaceae (52) yetakchilik qilgan (Sidiqjanov, 2024). Demak, urbanofloradagi umumiy qonuniyatga O‘zbekiston shaharlari urbanoflorasi ham muvofiq keladi.

Yetakchi oilalarning tahlil natijalari Asteraceae oilasi urbanoflora tarkibida 13.46% tashkil etishini qayd etilgan. Shahar florasida bu oila vakillarining nisbatan ko‘pligi chetdan kirib kelayotgan adventiv turlarning (15 tur, *Eclipta prostrata* (L.) L., *Erigeron bonariensis* L., *Sonchus arvensis* L., *Xanthium orientale* L.) aksariyat qismi shu oilaga mansub ekanligi bilan izohlanadi.



Alohida aytib o'tish joizki, Buxoro shahri urbanoflorasida *Amaranthaceae* oilasi (14 turkum, 34 tur) birinchi uchlikdagi uchinchi oila sifatida qayd etilgan. U Turon provinsiyasi tabiiy floralarining asosiy xususiyatlarini namoyon qiluvchi yetakchi oilalardan biri bo'lsa-da, uning vakillari orasida antropogen o'zgargan muhitlarda tarqalgan sinantrop turlarni ham uchratish mumkin. Ular shahar florasida tarkibida ruderal, partov yerlar, yo'l va ariq bo'ylari, gulzorlar va ekin maydonlarida uchraydi. Oilaning *Amaranthus* (6 tur), *Atriplex* (4), *Bassia* (3), *Chenopodium* (3), *Climacoptera* (3) va *Suaeda* (3) turkum turlari shahar hududida keng tarqalgan. Oila tarkibida invaziv turlarga boy turkum sifatida *Amaranthus* turkumi alohida ajralib turadi (Esanov, 2017). Ushbu oila vakillarining urbanoflorasi tarkibida yetakchilik qilishi Buxoro shahri florasining sinantroplashish darajasining ortayotganligidan dalolat beradi. Mazkur oila boshqa urbanofloralar (Baranova va boshq., 2018; Morozova va boshq., 2003) tarkibida o'rni past ko'rsatkichlar bilan namoyon bo'ladi. Bu holat bir tomondan, ushbu oilaning urbanoflora tarkibida o'rni yuqori emasligini ko'rsatadi, boshqa tomondan esa, Turon cho'l floralarida muhim o'rin egallashini ko'rsatmoqda. Ikkinchi holat, Buxoro shahrining urbanoflorasiga xos xususiyat ekanligini ko'rsatadi. Oilaning Buxoro shahri urbanoflorasidagi yetakchiligi hududning cho'l mintaqasida joylashganligi bilan izohlanadi. Yetakchi boshqa oilalar ham urbanoflora tarkibida o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qilgan va dissertatsiyada batafsil keltirilgan.

Buxoro shahri urbanoflorasining tarkibida 170 turkum uchraydi. Urbanoflora tarkibidagi turkumlar 1-6 turdan tarkib topgan. Tadqiqotlarda 4–6 turdan tashkil topgan polimorf turkumlar tanlangan. Mazkur turkumlar urbanofloraga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Ular asosan sinantrop turkumlar hisoblanadi. Ularning vakillari shahar florasining asosiy tarkibini tashkil etadi. Turkumlarning tahlil natijalari Buxoro shahri urbanoflorasi turkumlarining 69.41% 1 turdan tashkil topganligini ko'rsatadi. Bu esa urbanoflora tarkibida migratsion elementlar ko'pligidan dalolat beradi va ularning shakllanishida chetdan kirib kelgan turlarning o'rni yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Bobning ikkinchi bo'limida Buxoro shahri urbanoflorasining to'r tizimli tahlilining natijalari bayon etilgan. Unda urbanofloradagi turlar xilma-xilligi ko'rsatkichi (SR) va gerbariy yig'malari zichligi (CD) tahlil qilingan (2-rasm).

Tadqiqotlar natijasida Buxoro shahrining to'r tizimli xaritasining barcha indekslarining turlar xilma-xilligi aniqlanib, 11 ta indeksda 81-96 tur, 21 ta indeksda 72-80 tur, 33 ta indeksda 51-70 tur, 15 ta indeksda 33-50 tur, 5 ta indeksda 24-30 tur ishtirok etgan. Urbanofloraning turlar xilma-xilligi bo'yicha D6 yuqori ko'rsatkichni (96 tur) namoyon qiladi. Buxoro urbanoflorasining indekslar kesimida CD ko'rsatkichining yuqori darajasi 302–326 ga teng bo'lib, ular yettita indekslarda qayd etildi. Maksimal ko'rsatkich D3 indeksida 326 ta namunani tashkil etadi. Indekslar kesimida yig'malar zichligi o'rtacha ko'rsatkichi 234 ni tashkil etadi. Ikki holatda ham turlar xilma-xilligi va zichligi hududning ekologik jihatlari, antropogen omillar ta'siri, bino va inshootlar bilan

bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shahar hududi qurg‘oqchil bo‘lishiga qaramasdan, turlar xilma-xilligiga boy ekanligini qayd etilgan.



2-rasm. Buxoro shahrining GAT xaritalari: A. Buxoro shahri urbanoflorasidagi turlar xilma-xilligi (SR), B. Yig‘malari zichligi (CD)

Dissertatsiyaning “**Buxoro shahri urbanoflorasi adventiv fraksiyasining tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobida urbanoflora adventiv fraksiyasining taksonomik tarkibi, dominant va subdominant turlari, transformatsiya yo‘nalishlari hamda qiyosiy tahlillar bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limida tadqiqot hududining kengayib borayotganligi va bunga bog‘liq holda turlar soni, jumladan adventiv o‘simliklar soni ortib borganligi qayd etilgan. Olib borilgan tadqiqotlar davomida Buxoro shahri urbanoflorasi


tarkibida 26 oila, 70 turkumga mansub 96 tur adventiv o'simliklar uchrashini aniqlangan. Bu turlar O'zbekiston florasida uchraydigan 228 tur adventiv o'simliklarning (Sennikov et al., 2018) 42,11%, Buxoro shahri florasining 37,65% ini tashkil qiladi va bu yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki Buxoro viloyatida jami 124 tur adventiv o'simliklar uchraydi, shundan 96 tur (37 tur invaziv) urbanoflora tarkibida qayd etilgan. Andijon shahrida adventiv turlar ulushi 36,34% ni tashkil etadi (Sidiqjonov, 2024).

Buxoro shahrining adventiv florasida Asteraceae (15), Poaceae (15 tur), Brassicaceae (15), Amaranthaceae (10), Fabaceae (9) yetakchilik qiladi. Mazkur yetakchi oilalar tarkibida 64 tur jamlangan bo'lib, umumiy adventiv turlarning 66,67 % ni tashkil etadi. Qolgan oilalar tarkibida 1-3 turdan tashkil topgan. 57 turkum 1 turdan va 9 turkum 2 turdan tashkil topganligi Buxoro shahri urbanoflorasining shakllanishida adventiv turlarning o'rni katta ekanligini ko'rsatadi.


Bobning ikkinchi bo'limida dominant va subdominant turlarning hududda tarqalish xususiyatlari yoritilgan. Dominant turlar sifatida *Hornungia procumbens* (L.) Hayek, *Lepidium ruderae* L., *Strigosella africana* (L.) Botsch., *Veronica polita* Fr., *Hordeum murinum* subsp. *leporinum* (Link) Arcang., *Spergularia media* (L.) C. Persl. kabilar, qisqa va uzoq vegetatsiyali *Symphyotrichum graminifolium* (Spreng.) G.L. Nesom, *Trifolium repens* L., *Chenopodium ficifolium* Sm., *Atriplex micrantha* C.A. Mey., *Atriplex tatarica* L., *Amaranthus viridis* L., *Erigeron canadensis* L. kabilar, shuningdek, subdominant turlar sifatida *Digitaria sanguinalis* (L.) Scop., *Erigeron bonariensis* L., *Euclidium syriacum* (L.) W.T. Aiton, *Convolvulus arvensis* L., *Sonchus oleraceus* L., *Artemisia annua* L., *Cichorium intybus* L., *Lepidium latifolium* L. va boshqalar uchrashini qayd etilgan.

Bobning uchinchi bo'limi adventiv turlarining transformatsiya yo'nalishlariga bag'ishlangan bo'lib, Buxoro shahriga kirib keladigan turlar asosan odamlar tomonidan beixtiyor tarzda, transport va logistikani hamda o'simlik turlarini shahar sharoitlariga kiritish orqali amalga oshadigan bo'lganligi aniqlangan. Birinchi yo'nalish orqali *Erigeron bonariensis*, *Symphyotrichum graminifolium*, *Amaranthus viridis*, *Scandix australis* subsp. *grandiflora*, *Duchesnea indica*, *Eclipta prostrata* kirib kelishi, ikkinchi yo'nalish bilan esa *Geranium pusillum*, *Stizolophus balsamita*, *Centaurea solstitialis* va introduksiya bilan *Oxalis corniculata*, *Rorippa sylvestris*, *Galinsoga parviflora* kabi turlar kirib kelishi asoslangan.

Bobning to'rtinchi bo'limida adventiv fraksiyaning geografik xususiyatlari va to'r tizimli xaritalashning tahlil natijalari bayon etilgan. Bunda mazkur o'simliklar keng tarqalishga ega ekanligini namoyon qiladi. Turlar asosan Plyuregional (23 tur/23.96%), Golarktika (18/18,75%), Palearktika (17/17.71%), Qadimiyo'rtayer (8/8.33%) va Yevropa-Qadimiyo'rtayer (6/6.25%) areallarda tarqalganligini namoyon qildi. Boshqa areallarda 1-4 turdan uchraydi. Adventiv turlarning to'r tizimli xaritalashda turlar xilma-xilligi va yig'malar zichligi tahlil qilingan (3-rasm).



A.



B.

3-rasm. Buxoro shahri urbanoflorasidagi adventiv turlarning GAT xaritada aks etishi: A. xilma-xilligi (SR); B. yig'malar zichligi (CD)


Adventiv turlar Buxoro shahri hududining barcha indekslarida tarqalgan. Eng kam D8 (9 tur) va eng ko'p D2 (48 tur) indekslariga to'g'ri keladi. 1 ta indeksda 0-10 tur, 18 indeksda 11-20 tur, 20 indeksda 21-30 tur, 39 indeksda 31-40 tur va 7 indeksda 41-50 tur uchraydi. Turlar tarqalishining eng muhim jihati shundaki, shahar hududining 39 ta indeksida 31-40 tagacha turlar uchraydi, bu holat hududga chetdan kirib kelayotgan o'simliklarning keng tarqalganligini ko'rsatmoqda.

Yig'malar zichligi bo'yicha 4 ta indeksda 0-60 namunalar, 16 indeksda 61-90, 19 indeksda 91-120, 31 indeksda 121-150 va 15 indeksda 151-180 namunalar qayd etildi. 46 indeksda 121-180 yig'malar zichligi keltirilgan bo'lib, ular hududning

54,12% ni tashkil qiladi. Mazkur holat urbanoflora tarkibida adventiv turlar miqdori ortib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Bobning beshinchi bo'limida avtoxton va adventiv fraksiyalarning yetakchi oilalari, turkumlari, biogeografik va biomorfologik xususiyatlari qiyosiy tahlillari keltirilgan. Bunda aborigen fraksiya vakillari mahalliy turlardan tashkil topib, tabiiy floraga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Adventiv fraksiya tarqalish areali keng bo'lgan turlardan tashkil topganligi, ularning tarkibida mahalliy flora vakillarining uchramasligi bilan aborigen fraksiyadan farq qilishi namoyon bo'lgan.

Oltinchi bo'limda Buxoro shahri urbanoflorasini Andijon va Toshkent shahri florasini bilan solishtirish amalga oshirilgan. Mazkur tahlil taksonomik, geografik va hayotiy shakllar bo'yicha amalga oshirilgan. Turlar tarqalishida hududlarning ekologik xususiyatlari muhim o'rin tutganligi qayd etilgan. Uchta urbanoflora tarkibidan jami 888 ta o'simlik turi qayd etilgan Shundan 102 tasi Buxoro, Andijon va Toshkent urbanofloralari uchun umumiy hisoblanadi (4-rasm).



4-rasm. Urbanofloralarning solishtirma tahlili


Demak, tahlil natijalari floralardagi quyidagi xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi: birinchidan, urbanofloralar tarkibidagi 10 ta yetakchi oilalar spektri 60% dan ortiq (Toshkent-66.2%, Andijon-69.5%, Buxoro-73.7%) turlarni jamlagan. Bu holat kuchli antropogen bosimga ega bo'lgan floralar uchun xosdir; ikkinchidan, urbanofloralar tarkibida adventivlanish jarayoni jadal davom etayotgan bo'lsa-da, barcha urbanofloralarda mahalliy fraksiyaning (Tashkent-77.2%, Andijon-63.7%, Buxoro-62.4%) mavqeyi yuqori; uchinchidan, Toshkent va Andijon shaharlarining tabiiy landshaftlarida adventiv turlarni kirib borishi kuzatildi, ammo Buxoro shahrida bunday holat namoyon bo'lmadi.

Dissertatsiyaning **“Buxoro urbanoflorasi shakllanishining zamonaviy holati”** deb nomlangan to'rtinchi bobida urbanofloraning shakllanishiga antropogen omillarning ta'siri, ayrim invaziv turlarni tarqalishini turli iqlim ssenariylari yordamida baholash va bioiqlimiy modellashtirish, shahar o'simlik qoplaminig

o'zgarish tendensiyalari hamda urbanofloraning interaktiv veb-sayti to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.


Bobning birinchi va ikkinchi bo'limlarida shahar florasiga antropogen omillarning salbiy ta'sirlari yoritilgan va ayrim invaziv turlarni tarqalishi iqlim ssenariylari yordamida modellastirilgan. Shaharda qurilish ishlarining olib borilishi, aholi sonining yil sayin ortishi turlar kirib kelishi bilan birga ularning populyatsiyalarini kamayib borishiga sabab bo'lib, ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarning qisqarishiga asos bo'lgan.

So'ngi yillarda Buxoro shahar hududiga kirib kelgan ayrim turlar invaziv xususiyatni namoyon qilishi ularni turli iqlim ssenariylari yordamida baholash va modellastirishga asos bo'ldi. *Amaranthus viridis*, *Erigeron bonariensis* va *Symphyotrichum graminifolium* iqlim o'zgarishining SSP1-RCP2.6 va SSP5-RCP8.5 iqlim ssenariylari asosida baholanib, modellastirildi. Ularning kelajakdagi areallari bo'yicha tahlil natijalari olingan (5-rasm).



**5-rasm. *Amaranthus viridis*ning MaxEnt dasturi bo'yicha tarqalish xaritasi:
A. SSP126 iqlim ssenariylari: B. SSP585 iqlim ssenariylari**

Umuman olganda, turlarni tarqalishini modellashtirish belgilangan hududlarni kelajakda bioxilma-xillik holatini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, tur egallagan maydonlarni kengayishi yoki qisqarishi, qanday hududlar ularning yashash imkonini yanada oshirishi haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Bobning uchinchi bo'limida antropogen ta'sirlar natijasida Buxoro shahri o'simlik qoplamidagi o'zgarish holatlarining ArcGIS Desktop 10.8.2 dasturi orqali mozaik tasvir yaratilgani bayon etilgan. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish R.R. Daniel, N.B. Richard (2019) ma'lumotlariga asoslanadi. Ularning qayd etishicha, o'simliklar qoplamini va shahar hududining kengayishi hamda kamayishiga qarab shaharlar 4 guruhga bo'linadi (6-rasm). Shunga ko'ra, shaharlarning yashillik darajasi aniqlanadi.




6-rasm. Shaharlarning o'simliklar qoplamini va shahar hududining o'zgarishiga qarab guruhlanishi

Kulrang kengayish (Grey extensification) – bu o'simlik qoplamining izchil kamayishi bilan birga shahar maydonining periferiyalarga, ayniqsa, qishloq hududlariga qarab kengayishidir. *Kulrang kuchayishda* (Grey intensification) – shahar maydoni kengaymaydi, biroq o'simlik qoplami kamayadi. *Yashil kengayish* (Green extensification) – bu o'simlik qoplamining o'sishi bilan birga shahar maydonining ham ortishini anglatadi. *Yashil intensivlik* (Green intensification) – o'simlik qoplamining ortishi fonida shahar hududining kichik yoki o'zgarmas bo'lib qolishini bildiradi.

Mazkur yo'nalishda Buxoro shahri o'simlik qoplamini tahlil qilingan (7-rasm). Ushbu mozaik tasvirda shahar hududi kulrang rangda namoyon bo'ldi va Buxoro shahri hududi 6280 gektarni tashkil qilishi aniqlangan. Shundan, 226,1 gektar maydon yashil qoplamalar bilan qoplangan. S.M. Gafarova va boshqalar (2021) ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda shaharning ko'kalamzorlashtirilgan maydoni 295,01 gektarni tashkil etgan. Bu yashil maydonlarning qisqarib borayotganligini

ko‘rsatmoqda. Buni asosiy sabab sifatida qurilish inshootlari bilan bog‘liq holatlarni keltirish mumkin. Ushbu holat Andijon shahrida (10,393 gektar maydon) 1,167.25 gektar ko‘kalamzorlashtirilgan maydonni tashkil etadi. Demak, Buxoro shahrida umumiy maydonning 3,7% va Andijon shahrida 11,2% yashil maydonlar mavjud. Bu holat Buxoro shahrining yashil maydonlari yetarli emasligini va shaharlashning talablari buzilganligini ko‘rsatadi.

Buxoro shahrining barcha hududlarida ko‘p qavatli uylar, yangi bozorlar va savdo do‘konlarining qurilishi “*kulrang kuchayish*”ni namoyon qilmoqda. Mazkur hududlarda yashil maydonlarning tegishli darajada yaratilmaganligi bunga asos bo‘ladi. So‘nggi yillarda Buxoro shahrida jadal qurilish ishlari amalga oshirilmoqda, bu esa shahar hududining miqdoriy kengayishiga olib keladi. Biroq ushbu jarayon ekologik omillar, ayniqsa, o‘simlik qoplami bilan yetarlicha muvofiqlashtirilmagan. Natijada, yashil hududlar qisqarmoqda, bu esa Buxoro shahrining urbanizatsiya modeli “*kulrang kengayish va kulrang kuchayish*” bosqichiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.



**7-rasm. Buxoro shahri o‘simlik qoplaminig so‘ngi 10 yildagi o‘zgarishi:
A. 2015-yil; B. 2024-yil.**

Bobning to'rtinchi bo'limida Buxoro shahri urbanoflorasining interaktiv veb-sayti yaratildi va u to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Veb-saytda o'simliklarning ma'lumotlar jamlanmasi, turlar katalogi, xaritalar, foydalanuvchilarning foydalanish imkoniyatlari, ilmiy va amaliy ahamiyati, ekoturizm va ta'limiy resurs sifatidagi o'rni, geolokatsion to'plamlar va boshqa xususiyatlar ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mazkur saytning xorijiy platformalari bilan xususiyatlari solishtirilgan.

Buxoro shahri urbanoflorasiga bag'ishlangan veb-sayt o'zining interaktivlik darajasi, foydalanuvchi ishtiroki va ilmiy asoslangan ma'lumotlar bazasi bilan ajralib turadi. U nafaqat ekologik monitoringni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi, balki keng jamoatchilikni tabiatni asrashga jalb etish orqali ekologik madaniyatni yuksaltirishga hissasini qo'shadi. Ushbu loyihani O'zbekistonda raqamli ekologik ilmiy platformalar rivojlanishining yorqin namunasi sifatida e'tirof etish mumkin. Shuningdek, "yashilmakon.eko" platformasini boyitish uchun xizmat qiladi.

XULOSALAR

"Buxoro shahar urbanoflorasi" bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Buxoro shahri urbanoflorasi 42 oila, 170 turkumga mansub 255 turdan tashkil topgan, antropogen ta'sirga uchragan flora hisoblanadi. Urbanoflora, Buxoro vohasi florasining 48,29% va Janubi-G'arbiy Qizilqumning 32,07% qismini tashkil qiladi hamda bioxilma-xillik yuqori ekanligini namoyon qildi. Urbanofloraning taksonomik tarkibi, O'rta Osiyo janubiy cho'llariga xos xususiyatni o'zida aks ettirishi bilan birga, sinantrop taksonlarning ko'payib borayotganligini tasdiqlaydi.

2. To'r tizimli xaritalash asosida, tadqiqot hududi 1x1 km bo'laklarga bo'lingan va 85 ta indeksga ajratildi. Har bir indeksda tur xilma-xilligi ($SR=96$) va yig'malar zichligi ($CD=326$) o'rganildi va ularning xususiyatlari ilmiy asoslandi. Turlar xilma-xilligi 11 ta indeksda (81-96 tur) va yig'malar zichligi 7 indeksda (302-326) namoyon bo'ldi.

3. Buxoro shahrining urbanoflorasi, ikki fraksiyaga ajratilganda, avtohton fraksiyasida 36 oila, 117 turkumga mansub 159 tur, hamda adventiv fraksiyada 26 oila, 70 turkumga mansub 96 tur mavjud bo'ldi. Bunda adventiv o'simliklar hudud florasining 37,65% ini tashkil qilib, urbanoflora tarkibida adventivlanish darajasi yuqori ekanligini ko'rsatdi.

4. Avtohton floraning yetakchi oilalar spektrida dastlabki uchlikni *Amaranthaceae*, *Asteraceae* va *Poaceae* bo'lib, mahalliy flora xos xususiyatlarni namoyon qilgan bo'lsa, adventiv florada *Asteraceae*, *Poaceae* va *Brassicaceae* oilalari, antropogen transformatsiyaga uchragan hudud florasida xususiyatlarini qayd etdi.

5. Buxoro shahri urbanoflorasi, Toshkent (663 tur) va Andijon (355 tur) shahar floralariga nisbatan, bioxilma-xillik past ekanligini ko'rsatdi. Bu, shahar maydonining kichikligi, arid mintaqada joylashganligi va tabiiy jamolarning mavjud emasligi

bilan izohlanadi. Qolaversa, qiyoslanayotgan hududlarda antropogen bosim kuchli, adventivlanish jarayoni jadal bo'lishiga qaramay, barcha urbanofloralarda mahalliy fraksiyaning o'rni yuqori ekanligi aniqlandi.

6. Buxoro shahrining urbanoflorasi tarkibidagi *Amaranthus viridis*, *Erigeron bonariensis* va *Symphyotrichum graminifolium* invaziv turlarining potensial tarqalishi, asosiy ekologik-ijtimoi o'zgaruvchilarining kombinatsiyasi va SSP1-RCP2.6 (o'rtacha) hamda SSP5-RCP8.5 (yuqori) emissiya iqlim ssenariylari asosida modellashirildi. Unda global o'rtacha havo haroratning ko'tarilishi, *Symphyotrichum graminifolium* tarqalishining kengayishiga sabab bo'ladi. Harorat +1.7°C yoki undan yuqori bo'lganda, *Amaranthus viridis* va *Erigeron bonariensis* o'sish muhitining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

7. Buxoro shahrining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xususiyatlari, shuningdek, urbanizatsiyaning tez sur'atda rivojlanishi, o'simlik qoplamining o'zgarishi, shaharning "kulrang kengayishi" va "kulrang kuchayishi"ga olib kelmoqda.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.В.70.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

УМЕДОВ АБДУЛЛАЖОН МУХАММАДЖОН УГЛИ

УРБАНОФЛОРА ГОРОДА БУХАРЫ

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/B1165.

Диссертационная работа выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www: qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNeb» ([www: ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

Научный руководитель

Эсанов Хусниддин Курбонович
доктор биологических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты:

Тургинов Орзимат Турдиматович
доктор биологических наук(DSc),

Абдураимов Азизбек Султанкулович
доктор философии по биологическим наукам (PhD),
доцент


Ведущая организация:

Джизакский государственный педагогический
университет

Защита диссертации состоится « 23 » 12 2025 года в 10 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.B.70.03 при Каршинском государственном университете (Адрес: 180119. Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04; факс: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Каршинский государственный университет, главный корпус, кабинет № 205.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № 201) (Адрес: 180119. Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат диссертации разослан « 4 » 12 2025 г.
(реестр протокола № 18 от « 4 » 12 2025 г.).


Л.Х. Ёзиев
Председатель Научного совета по
присуждению учёной степени,
доктор биологических наук,
профессор
Ш.А. Саматова
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению учёной
степени, кандидат биологических
наук, профессор
Х.К. Эсанов
Председатель Научного семинара
при научном совете по
присуждению учёной степени,
доктор биологических наук,
доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время одной из крупнейших угроз для глобального биологического разнообразия и устойчивости природных экосистем является проникновение видов, несвойственных местным природно-климатическим условиям. В этом процессе важную роль играет усиление антропогенного давления и растущий уровень урбанизации. Если в XIX веке в городах проживало лишь 3% населения мира, то к середине XX века эта цифра составила уже 34%, а к 2020 году около 57% людей проживают в городах. В результате воздействия антропогенных факторов во флору городов случайно занесённые виды обогащают флористический состав. Особенно актуальной становится инвентаризация состава городской флоры, выявление местных и чужеродных видов, а также изучение особенностей современного флорогенеза – это одна из самых насущных проблем, не терпящих отлагательств.

В мире проводятся научные исследования, связанные с расширением городов, ростом их населения, сокращением биоразнообразия в синантропных средах, трансформацией растительного покрова, увеличением числа заносных видов растений, их экономическим ущербом, воздействием на состав аборигенной флоры и закономерностями современного формирования урбанофлоры. При этом особое внимание уделяется проведению системно-таксономического анализа урбанофлор, их фитогеографии, изучению биоэкологических особенностей инвазивных видов, а также выявлению изменений в растительном покрове и процессов, возникающих под их воздействием.

В нашей республике уделяется большое внимание изучению, охране и рациональному использованию природных флор. В этой области достигнуты определённые успехи в проведении современных исследований природных флор, кадастрировании растений по административным территориям, моделировании распространения видов и создании сетевых карт, а также определении их ресурсов. В последние годы наблюдается быстрое преобразование флоры в антропогенно изменённых средах. Это особенно проявляется в составе урбанофлор. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы¹ определены важные задачи по «Экологии и охране окружающей среды, улучшению экологической ситуации в городах и районах...». Исходя из этих задач, проведение инвентаризации урбанофлоры города Бухары, выявление путей трансформации видов, проникших из других регионов, изучение особенностей их климатизации и биоклиматическое моделирование видов представляют собой важные научно-практические исследования.

Данное диссертационное исследование в определенной мере послужит реализации задач, обозначенных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 22 января 2009 года «О дополнительных мерах по улучшению озеленения населенных пунктов Республики Узбекистан», №ПП-1045

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

